



TA'LIMDA XALQARO TAJRIBALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNI AMALGA OSHIRISH

Achilova Sunbula Asrorovna

Qarshi shaxar Turon universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi
Magistraturasi 2-kurs talabasi

E-mail: ochilovasumbula409@gmail.com

Tel: (91)6349186

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17697350>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 20-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 24-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

Ta'lim, rivojlanish, fan-texnika,
Raqamli texnologiya,
Mamlakatlar, xalqaro ta'lim,
xorijiy tajriba, zamonaviy
yondashuv.

ABSTRACT

Maqolada bugungi kundagi ta'limda bo'layotgan islohotlar va yangiliklar xaqida so'z boradi. Xalqaro ta'lim tizimiga yuksak natijalarga erishgan mamlakatlar ta'lim tizimini yutuqlari va ularni O'zbekiston ta'lim tizimida tadbiq etish, O'zbekistonda ta'lim tizimidagi zamonaviy yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklari, afzalliklari ko'rib chiqiladi. Ta'lim tizimidagi xalqaro tajribalardan foydalanish va tashkil etish muxim maqsad ekanligi xaqidagi fikrlar ilgari surilgan.

Bugungi ta'lim tizimi rivojlanayotgan davrda, har bir mamlakat o'z ta'lim tizimida yuksak natijalarga erishish uchun boshqa davlatlarning yuqori natijalar ko'rsatgan tajribalariga murojaat qilmoqda. Xalqaro ta'lim tizimi muaffaqiyatlarini o'rganish va ularni milliy mentalitetimizga va sharoitimizga mos holatda amalga qo'llash muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada Halqaro ta'lim tizimidagi tajribalarning mohiyati, ularni o'zlashtirish metodikasi va O'zbekistonda davlatimiz raxbari SH.M.Mirziyoyevning ta'lim tizimida xalqaro tajribalardan foydalanish uchun amalga oshirayotgan islohotlari haqida so'z yuritiladi.

Asosiy qism: Xalqaro tajriba-bu boshqa davlatlarda ta'lim sohasida tajriba va sinovdan o'tgan, muvaffaqiyatli natijalar bergan metodlar tizimlar va yondashuvlardir. Ulardan foydalanish metodikasi esa bu tajribalarni o'rganib, ularni milliy va madaniy ta'lim tizimiga moslashtirish va tadbiq etish usullaridir. Dunyo bo'ylab ta'lim tizimida muvaffaqiyatli yutuqlarga erishgan bir qator mamlakatlarni aytishimiz mumkin jumladan:

Finlandiya – O'quvchilarni erkin fikrlashi va ijtimoiy moslashuvga, ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishga, baholashdan ko'ra o'rganishga e'tibor qaratadi, Har bir o'quvchining qobiliyati qiziqishi va rivojlanish sur'ati inobatga olinadi. Finlandiya dunyodagi eng ilg'or va muvaffaqiyatli ta'lim tizimlaridan biri sifatida tan olingan, PISA reytingida yuqori o'rinlar egallashi bilan ajralib turadi.

Singapur – Mamlakat o'zining kichik maydoniga qaramasdan, o'quvchilarning bilim darajasi va intellektual salohiyati bo'yicha ko'plab reytinglarda yetakchilik qiladi. Bu muvaffaqiyatlar uzoq yillik stratigik rejalashtirish va tizimli islohotlar natijasidir. Darslar analiz

qilish, muammoli vaziyatlarda guruh bilan ishlash, savollarga to'g'ri javob topish emas, yechim izlash va fikr bildirish muhim sanaladi. STEM yo'nalishida katta etibor qaratiladi. PISA reytingida yuqori o'rinlarga turadi.

Janubiy Koreya – qisqa vaqt ichida iqtisodiy va texnologik rivojlanishda erishgan mamlakatlardan biri bo'lib, bu yutuqlarning asosi sifatida ta'lim tizimi alohida e'tiborga loyiqdir. Ta'lim tizimida yuqori darajadagi intizom texnologik integratsiya va malakali o'qituvchilarni tayyorlash bilan ajralib turadi. 99 % dan ortiq aholi savodli. UNESCO, OECD, VA PISA Koreya ta'lim tizimini dunyoning eng samarali tizimlaridan biri deb tan oldi.

Estoniya - Yevropa ittifoqi hududidagi eng ilg'or ta'lim tizimiga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Uning yutuqlari ayniqsa raqamli ta'lim tizimi, tenglik va sifatli boshlang'ich ta'lim borasida e'tiborga loyiq. Maktab ta'limi to'liq bepul bo'lib, hatto darsliklar, ovqat va transport ham davlat tomonidan ta'minlanadi, diyarli barcha maktablar internetga ulangan va raqamli o'quv materiallari bilan ishlaydi. O'qituvchilar magistr darajada ega bo'lishlari shart. OECD, UNESCO, World Bank Estoniya ta'lim tizimini Yevropani kelajagi deb atadi.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro ta'lim tizimiga qaratilgan islohotlar so'ngi yillarda juda faol ravishda amalga oshirilmoqda . Ushbu islohotlar Yangi O'zbekiston taraqqiyot Strategiyasi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish, bu yuzasidan Xorijiy ta'lim muassasalari filiallari ochilmoqda, Qo'shma diplom dasturlari joriy qilinmoqda, Talaba va profissorlar almashinuvi yo'lga qo'yilmoqda.

Xalqaro standartlarga mos ta'lim tizimi, Milliy o'quv dasturlari xalqaro andozalarga moslashtirilmoqda, ayniqsa STEM fanlari bo'yicha, IELTS, TOEFL, CEFR kabi xalqaro sertifikatlar tan olinmoqda va o'quv dasturlari integratsiya qilinmoqda. Xalqaroakkredatsiyalardan o'tish jarayonlari boshlanmoqda.

Ta'lim sifatini baholash va sertifikatlash. O'qituvchilarga xalqaro sertifikatlar asosida baho berish va lavozimiga tayinlash tizimi yo'lga qo'yilmoqda, PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etilmoqda. Maktab bitiruvchilari uchun xalqaro bakalavriat va Cambridge Assessment dasturlari joriy etish harakatlari olib borilmoqda.

Raqamlashtirish va onlaen ta'lim. Xalqaro ta'lim platformalari bilan hamkorlik. Onlaen darslar raqamli kutubxonalar va masofaviy o'qitish tizimlari rivojlantirilmoqda. O'zbekistonda "ZiyoNet", "edu.uz". "my.edu.uz" kabi raqamli ta'lim resurslari yangilanmoqda.

Xalqaro grandlar va moliyaviy yordam. Yevropa ittifoqi, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, KOICA va boshqa tashkilotlar tomonidan ta'lim sohasiga sarmoyalar jalb etilmoqda, talabalar uchun xorijda o'qish bo'yicha grantlar, stendiyalar kengaymoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimida xalqaro tajribalardan foydalanish, nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi balki yosh avlodning bilimini, aqli faolligini, zamonaviy fikrlovchi insonlar bo'lib voyaga etishishiga xizmat qilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ta'lim sohasiga oid bir nechta kitoblar nashr etilgan bo'lib ular mamlakatni ta'lim tizimini islox qilish , xalqaro tajribalarni joriy etish va zamonaviy yondashuvlarni tadbiq etish masalalari yoritiladi.

"Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi Talim Tizimidagi Isloxotlar" Ushbu uslubiy qo'llanmada O'zbekistonda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqaro tajribalar joriy etish va zamonaviy yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darsliklar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni yodlashga emas, balki fikirlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidladila. Bu borada Finlandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat haqida yuqorida aytib o'tilganidek umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar, matematika, mantiqiy fikrlash bo'yicha xalqaro tajribasi dunyoda etakchi bo'lgan mamlakatdir. Ta'limni isloh qilish haqida fikr yuritir ekanmiz ta'lim olish uchun asosiy vositasi bo'lgan darsliklarni yangilash haqida ham aloxida to'xtalish lozim. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: "Darsliklar masalasida ancha muammo borligi unung ichiga kirgach bilindi, Ulrni saviyasi haqida katta muhokamalar bo'ldi. Finlandiya standarti bilan 1-4 sinflar uchun darsliklar qiladigan bo'ldik. Finlandiya xalq ta'limi Yevropa miqqiyosida umuman dunyoda raqobatbardosh hisoblanadi."- degan fikrlari bu sohada yuksak iqtidorga ega soha vakillarini jalb qilishni anglatadi. Barcha mamlakatlarda Milliy o'quv dasturini to'laonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan zamonaviy adabiyotlarni amaliyotga kiritish amalga oshirildi.

Davlatimiz raxbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarda islohotlar sur'atida mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi .Shu maqsadda butun ta'lim tizimi takomillashtirilmoqda . Maktabgacha ta'lim rivojlanayotganligini maktab saboqlariga puxta zamin bo'lmoqda .Umumiy o'rta ta'lim sifatli ilg'or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda .Prezident maktablari, buyuk allomalar nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar kabi xalqaro ta'lim standartlariga mos bo'lgan maktablar, Temurbeklar maktabi kabi zamonaviy ta'lim maskanlari tashkil etildi.

Ta'limda xalqaro tajribalarni joriy etishdagi muhim jixatlardan yana biri o'qituvchilarning malakasini doimiy oshirish , ularni yangi metodlarga o'rgatish va xalqaro loyixalarda faol ishtirokini ta'minlashdir. Bu esa o'z navbatida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytaganda , ta'lim tizimida xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish va zamonaviy xalqaro ta'lim metodikalarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali O'zbekistonning ta'lim tizimi xalqaro maydonda raqobatbardosh, innovatsion, va zamon talablariga javob beraoladigan holatga etadi. Bu esa kelajak avlod uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022–2026). Toshkent.
2. 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi (2021). "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi Talim Tizimidagi Islohotlar" uslubiy qo'llanma.
3. 3.O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (2023). Ta'lim sohasidagi islohotlar: 2017–2023 yillar.
4. 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi (2020). Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'lim sohasidagi islohotlar bo'yicha videoselektordagi nutqi (transkript). 15 dekabr 2020 y.
5. 5.A. X. Xalqov O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Metodik bo'lim bosh mutaxassisi.
6. 6.Sahlberg, P. (2015). Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? New York: Teachers College Press(Finlandiya modeli va "o'rganishga e'tibor" yondashuvi uchun).

7. 7.Deng, Z., & Gopinathan, S. (2016). PISA and high-performing education systems: The case of Singapore. In Handbook of Global Education Policy (pp. 123–145). Wiley-Blackwell.
8. 8.Kim, Y. (2021). South Korea's Educational Success: Discipline, Technology, and Teacher Quality. Journal of East Asian Education, 12(3), 45–67.
9. 9.Erss, M. (2018). Digital Transformation in Estonian Schools: From Policy to Practice. European Journal of Education, 53(4), 512–525.



INNOVATIVE
ACADEMY